



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHKENT YARMARKALARINING O'RGANILISH TARIXI

Rajabov Vohid Muhammad o'g'li
Ipak yo'li innovatsiyalar universiteti, o'qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada mustaqillik yillarida tarix sohasida olib borilgan keng qamrovli islohotlar va ilmiy tadqiqotlar natijasida imperiya davrining muhim iqtisodiy omillaridan biri bo'lgan Turkiston yarmarkalarini o'rganish masalasi yoritiladi. Shu nuqtai nazardan, Toshkent yarmarkasining Turkiston o'lkasi iqtisodiy hayotidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida mustaqillik davrida Toshkent shahrida yarmarkalar faoliyatining shakllanishi va rivojlanish jarayonlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: shaharlar tarixi, savdo aloqalari, bozor infratuzilmasi, D. Alimova, A. Sagdullayev, Markaziy Osiyo, Toshkent, urbanizatsiya.

ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ ТАШКЕНТСКИХ ЯРМАРОК В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Раджабов Вохид Мухаммад угли
Университет инноваций «Шёлковый путь», преподаватель

Аннотация

В статье рассматривается изучение туркестанских ярмарок как важного экономического фактора эпохи империи в контексте широкомасштабных реформ и научных исследований в области истории, проведённых в годы независимости. Особое внимание уделяется роли Ташкентской ярмарки в экономической жизни Туркестанского края. В работе также анализируется деятельность ярмарок в Ташкенте в период независимости и их значение в развитии экономических и торговых отношений региона.

Ключевые слова: история городов, торговые связи, рыночная инфраструктура, Д. Алимова, А. Сагдуллаев, Центральная Азия, Ташкент, урбанизация.

HISTORY OF THE STUDY OF TASHKENT FAIRS DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Rajabov Vohid Muhammad o'g'li
Silk Road Innovations University, Lecturer

Abstract

This article examines the study of Turkestan fairs as an important economic factor of the imperial period in the context of extensive reforms and historical research conducted during the years of independence. Particular attention is paid to the role of the Tashkent fair in the economic life of Turkestan. The article also analyzes the activities of fairs in Tashkent during the independence period and their significance in the development of regional trade and economic relations.

Keywords: urban history, trade relations, market infrastructure, D. Alimova, A. Sagdullaev, Central Asia, Tashkent, urbanization.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng milliy tarixshunoslikda shaharlar tarixi, savdo munosabatlari va bozor infratuzilmasini o'rganish masalalari yangi metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etila boshlandi. Agar sovet davri tadqiqotlarida yarmarkalar asosan

mustamlakachilik iqtisodiyoti nuqtai nazaridan talqin qilingan bo'lsa, mustaqillik davrida mazkur institut shahar iqtisodiyoti, urbanizatsiya jarayonlari va mintaqalararo savdo tizimi bilan bog'liq holda kompleks tarzda o'rganila boshlandi. Bu esa Toshkent yarmarkasi tarixi bo'yicha tadqiqotlarning mazmun va uslub jihatidan yangilanishiga olib keldi. Mazkur muammoni o'rganishda, avvalo, Turkiston shaharlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilgan umumiy tadqiqotlarga murojaat qilish zarur. Xususan, D. Alimova tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida shahar iqtisodiyoti tarkibida savdo muassasalari, jumladan bozorlar va yarmarkalar muhim institutsional omil sifatida baholanadi [1.256 b.]. Muallif shahar iqtisodiy muhitining transformatsiyasida savdo markazlarining roli ortib borganini ta'kidlab, bu jarayonni urbanizatsiya va ijtimoiy o'zgarishlar bilan bog'laydi.

Ushbu masalani iqtisodiy munosabatlar tarixi nuqtai nazaridan davom ettirgan tadqiqotchilar qatorida A. Sagdullayev alohida o'rin tutadi. Uning ishlarida Markaziy Osiyo shaharlarida savdo munosabatlarining rivojlanishi, iqtisodiy infratuzilmaning shakllanishi va savdo aloqalarining geografiyasi tahlil qilinib, yarmarkalar mintaqa iqtisodiy makonini birlashtiruvchi muhim mexanizm sifatida baholanadi [2.312 b.]. Shu tariqa, tadqiqotchi yarmarkalarni faqat savdo maydoni emas, balki iqtisodiy integratsiya vositasi sifatida talqin qiladi. Muallif arxiv hujjatlari va statistik ma'lumotlarga tayangan holda XIX asr oxirida shaharda savdo muassasalari tarmog'i kengayganini, yarmarkalar va bozorlar faoliyati faollashganini ko'rsatadi. Bu esa shahar iqtisodiy hayotini o'rganishda empirik manbalarning ahamiyatini yanada oshiradi. Toshkent shahrining mintaqaviy savdo markazi sifatida shakllanishini tahlil qilishda. R. Hasanovning ishlari ham muhim ahamiyatga ega. Muallif shahar iqtisodiyoti rivojida savdo infratuzilmasining hal qiluvchi o'rin tutganini ko'rsatib, yarmarkalar tashqi savdo aloqalarini ta'minlashda muhim vosita bo'lganini ta'kidlaydi. Bu xulosalar shahar iqtisodiyotini mintaqaviy aloqalar tizimi bilan bog'liq holda o'rganish zarurligini ko'rsatadi [3.224 b.]. Mazkur yondashuv shahar makoni va urbanizatsiya jarayonlarini tahlil qilgan tadqiqotlarda ham o'z aksini topgan. Jumladan, Z. Ilhomov shaharsozlik tarixi bo'yicha ishlarida savdo hududlari va yarmarkalarni shahar makonining funksional jihatdan muhim qismi sifatida baholaydi. U shahar iqtisodiyotini o'rganishda urbanistika nazariyalaridan foydalanish muhimligini ta'kidlaydi, bu esa yarmarkalarni faqat iqtisodiy emas, balki shahar muhitini shakllantiruvchi omil sifatida ham ko'rib chiqish imkonini beradi. Shu bilan birga, savdo munosabatlarining institutsional va iqtisodiy jihatlarini tadqiq etgan olimlar ishlarida ham mazkur masalaga muayyan darajada e'tibor qaratilgan [4. 198 b.]. Mustaqillik davri tadqiqotchilari orasida

A. Tog'oyevaning ishlari ham alohida ahamiyatga ega. Uning tadqiqotlarida Turkiston shaharlarining ijtimoiy tarkibi, shahar muhiti va iqtisodiy hayotga ta'sir etgan omillar tahlil qilinib, savdo munosabatlari va shahar infratuzilmasining rivojlanishiga doir muhim mulohazalar bildirilgan. Bu tadqiqotlar shahar iqtisodiyoti va savdo tizimini kompleks o'rganishda muhim nazariy asoslardan biri bo'lib xizmat qiladi [4.C.76.]. Masalan, Turkiston shaharlarida savdo munosabatlari tizimini tahlil qilib, yarmarkalarni tovar aylanmasi va savdo geografiyasini kengaytiruvchi muhim iqtisodiy institut sifatida baholaydi. Ushbu fikrlar shahar iqtisodiyoti rivojida yarmarkalarning amaliy ahamiyatini yanada ravshanlashtiradi.

Turkiston o'lkasining iqtisodiy tarixi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan N. Normurodov ishlarida savdo munosabatlari, yarmarkalar va bozorlar faoliyati arxiv hujjatlari asosida tadqiq qilingan [6.210 b.]. Muallif empirik ma'lumotlarga tayanish shahar iqtisodiyoti tarixini ilmiy jihatdan asoslashda muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlar S. Mirzayev ishlarida ham davom ettirilib, shahar iqtisodiyoti tarixi va savdo munosabatlari evolyutsiyasi tahlil qilingan [7.192 b.]. Muallif yarmarkalarni mintaqalararo iqtisodiy aloqalarni mustahkamlovchi omil sifatida baholaydi, bu esa ularning iqtisodiy makondagi rolini yanada kengroq ko'lamda ko'rib chiqish imkonini beradi.

So'nggi yillarda yosh tadqiqotchilar tomonidan ham mazkur masalaga qiziqish ortib borayotganini kuzatish mumkin. Jumladan, I. Tursunov va F. Abdullayevning dissertatsion

ishlarida arxiv hujjatlari, statistik ma'lumotlar va ma'muriy hisobotlar asosida shahar iqtisodiyoti va savdo munosabatlarining ayrim jihatlarini tahlil qilingan. Bu tadqiqotlarda tovar aylanmasi, ishtirokchilar tarkibi va savdo yo'nalishlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan [8– 156 b.]

Adabiyotlar sharhi-Toshkent yarmakalari va umuman Turkiston o'lkasida savdo munosabatlari tarixini o'rganish masalasi tarixshunoslikda turli davrlarda turlicha metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Mazkur muammoning ilmiy tahlili, avvalo, sovet davri va mustaqillik yillari tarixshunosligida shakllangan qarashlarni qiyosiy o'rganishni taqozo etadi. Ayniqsa, O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng ushbu masalaga yondashuv tubdan o'zgardi hamda yangicha konseptual asoslar paydo bo'ldi.

Xususan, Dilorom Alimova o'z tadqiqotlarida Turkiston shaharlari iqtisodiy hayotini tahlil qilib, savdo muassasalari va yarmakalarni iqtisodiy muhit transformatsiyasining muhim institutsional omili sifatida baholaydi. Uning fikricha, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida savdo markazlari shaharlarda iqtisodiy faollikni oshirgan va urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirgan.

Abdulaziz Sagdullaev Markaziy Osiyo shaharlari iqtisodiy taraqqiyotini o'rganar ekan, yarmakalarni mintaqaviy iqtisodiy makonni birlashtiruvchi mexanizm sifatida talqin qiladi. U savdo aloqalarining geografik kengayishini iqtisodiy integratsiya jarayoni bilan bog'laydi.

Rustam Hasanov Toshkent shahrining mintaqaviy savdo markaziga aylanish jarayonini tahlil qilib, yarmakalarning tashqi va ichki savdo munosabatlarini mustahkamlashdagi rolini asoslab beradi. Zuxriddin Ilhomov esa urbanizatsiya jarayonlarini tadqiq qilib, yarmakalarni shahar makonining funksional va iqtisodiy jihatdan muhim qismi sifatida baholaydi.

Shuningdek, Anna Tog'oyeva, Nodir Normurodov, Said Mirzaev hamda yosh tadqiqotchilar Ilhom Tursunov va Farhod Abdullaevlarning ilmiy izlanishlarida arxiv hujjatlari, statistik ma'lumotlar va ma'muriy hisobotlar asosida savdo tizimi va shahar iqtisodiyoti chuqur tahlil qilingan. Ularning ishlari empirik manbalarga tayanganligi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot metodologiyasi-mazkur tadqiqot Toshkent yarmakalarining tarixiy rivojlanishi, ularning shahar iqtisodiy hayotidagi o'rnini hamda tarixshunoslikdagi talqinini kompleks yondashuv asosida o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy tarixshunoslik tamoyillari, milliy va jahon tarixiy maktablari tajribasiga tayangan holda shakllantirildi.

Tadqiqot quyidagi metodologik tamoyillarga asoslanadi: yarmakalar faoliyati va ularning iqtisodiy ahamiyati o'z davrining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sharoiti bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilinadi. Sovet davri va mustaqillik davri tarixshunosligidagi qarashlar qiyosiy ravishda, mafkuraviy yondashuvlardan xoli tarzda baholanadi. Yarmakalar savdo tizimi, bozor infratuzilmasi, transport aloqalari va urbanizatsiya jarayonlari bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganiladi. Iqtisodiy, ijtimoiy va hududiy omillar birgalikda tahlil qilinadi.

Nazariy jihatdan tadqiqot iqtisodiy tarix, urbanistika hamda institutsional iqtisodiyot konsepsiyalariga tayangan holda olib boriladi. Yarmakalar iqtisodiy institut sifatida, ya'ni savdo aloqalarini tartibga soluvchi va hududiy integratsiyani ta'minlovchi mexanizm sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: turli davrlardagi yarmakalar faoliyatini o'zaro taqqoslash orqali ularning rivojlanish bosqichlari aniqlandi. Yarmakalarning shakllanish xususiyatlari va iqtisodiy funksiyalarini tasniflashda qo'llanildi. Jarayonlar izchillikda, vaqt ketma-ketligida tahlil qilindi. Savdo aylanmasi, asosiy tovar turlari va ishtirokchilar tarkibini aniqlashda qo'llanildi.

Tahlil natijalari - Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Toshkent yarmakalarining shakllanishi va rivojlanishi bir necha tarixiy bosqichlarni bosib o'tganligi aniqlandi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Toshkent yarmakalari Turkiston o'lkasining yirik savdo markazlaridan biriga aylangan bo'lib, ular hududiy va mintaqalararo iqtisodiy aloqalarni mustahkamlovchi muhim mexanizm vazifasini bajargan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki:

1. Savdo aylanmasining tarkibi – Toshkent yarmakalarida paxta va boshqa xom

ashyo mahsulotlari yetakchi o'rin egallagan. Bu holat o'lka iqtisodiyotining Rossiya sanoat markazlari bilan chambarchas bog'langanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, yarmarkalarda sanoat mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlari va qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi ham faol amalga oshirilgan.

2. Iqtisodiy integratsiya omili – Yarmarkalar orqali Toshkent nafaqat mahalliy, balki mintaqaviy savdo markaziga aylangan. Savdo aloqalari Samarqand, Qo'qon, Buxoro va boshqa hududlar bilan kengaygan.

3. Urbanizatsiya jarayonlariga ta'siri – Yarmarkalar shaharning iqtisodiy infratuzilmasi rivojiga turtki bergan. Bozorlar, savdo rastalari, omborxonalar va transport yo'llari kengaygan. Natijada Toshkentning shahar makoni funksional jihatdan murakkablashgan.

4. Ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiya – Yarmarkalar faoliyati natijasida tovar-pul munosabatlari chuqurlashgan, savdogar va vositachilar qatlamining roli oshgan. Bu jarayon feodal xo'jalik munosabatlaridan bozor iqtisodiy elementlariga o'tishda muhim bosqich bo'lib xizmat qilgan.

5. Tarixshunoslikdagi talqinlar evolyutsiyasi – Sovet davri tadqiqotlarida yarmarkalar asosan mustamlakachilik iqtisodiyotining vositasi sifatida baholangan bo'lsa, mustaqillik davrida ular shahar iqtisodiyoti va hududiy integratsiyaning muhim instituti sifatida talqin qilina boshlandi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki Mazkur tadqiqot doirasida Toshkent yarmarkalarining tarixiy rivojlanishi, ularning shahar iqtisodiy hayotidagi o'rni hamda tarixshunoslikda o'rganilish darajasi kompleks metodologik yondashuv asosida tahlil qilindi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar quyidagi umumiy xulosalarni chiqarish imkonini berdi.

Birinchidan, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Toshkent yarmarkalari Turkiston o'lkasining muhim savdo markazlaridan biri sifatida shakllangan va mintaqaviy iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynagan. Ular nafaqat tovar ayirboshlash maydoni, balki hududlararo iqtisodiy integratsiyani ta'minlovchi mexanizm vazifasini bajargan.

Ikkinchidan, yarmarkalar faoliyati shahar iqtisodiy infratuzilmasining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Savdo rastalari, omborxonalar, transport aloqalari va bozor tizimining kengayishi Toshkentning urbanistik taraqqiyotini jadallashtirgan. Natijada shahar iqtisodiy makoni funksional jihatdan murakkablashgan va ixtisoslashgan.

Uchinchidan, yarmarkalar faoliyati tovar-pul munosabatlarining chuqurlashuviga, savdogar va vositachilar qatlamining shakllanishiga hamda iqtisodiy tafakkurning o'zgarishiga xizmat qilgan. Bu jarayon o'lka iqtisodiyotining an'anaviy xo'jalik tizimidan bozor munosabatlariga o'tish bosqichida muhim ahamiyat kasb etgan.

To'rtinchidan, tarixshunoslik tahlili shuni ko'rsatdiki, sovet davri tadqiqotlarida yarmarkalar asosan mustamlakachilik siyosatining iqtisodiy vositasi sifatida talqin qilingan bo'lsa, mustaqillik davrida ular shahar iqtisodiyoti, urbanizatsiya va hududiy integratsiya jarayonlari bilan bog'liq holda kengroq va xolisroq yondashuv asosida o'rganila boshlandi. Bu esa mavzuning konseptual jihatdan yangicha talqin qilinishiga olib keldi.

Beshinchidan, mavjud ilmiy adabiyotlarda Turkiston savdo tizimi keng yoritilgan bo'lsa-da, Toshkent yarmarkalarining alohida kompleks, maxsus tadqiqi yetarli darajada amalga oshirilmagan. Shu bois, mazkur yo'nalishda arxiv manbalari asosida chuqurlashtirilgan ilmiy izlanishlar olib borish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Umuman olganda, Toshkent yarmarkalari o'z davrida shahar iqtisodiyoti rivojining muhim omili, hududiy iqtisodiy integratsiya mexanizmi hamda urbanizatsiya jarayonlarining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lgan. Ularni iqtisodiy institut sifatida o'rganish tarix fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib, mazkur tadqiqot ushbu masalani ilmiy jihatdan yoritishga muayyan hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alimova D.A. Turkiston shaharlari tarixi va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar. – Toshkent: Fan, 2010.
2. Sagdullayev A.S. O‘zbekiston tarixi: shaharlar va iqtisodiy munosabatlar taraqqiyoti. – Toshkent: Akademnashr, 2014.
3. Hasanov R. O‘zbekiston shaharlarining iqtisodiy tarixi (XIX–XX asr boshlari). – Toshkent: Yangi nashr, 2018.
4. Ilhomov Z. O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
5. Togoyeva A. Turkiston shaharlarining ijtimoiy tarixi masalalari. – Toshkent, 2015
6. Normurodov N. Turkiston iqtisodiy tarixi masalalari. – Toshkent: Navro‘z, 2017.
7. Mirzayev S. O‘zbekistonda savdo munosabatlari tarixi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
8. Abdullayev F. Turkiston shaharlarida savdo infratuzilmasi tarixi: tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2022. – 148 b.; Tursunov I. XIX–XX asr boshlarida Turkiston shaharlari iqtisodiy hayoti: tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2021.
9. G‘ulomov Ya.G‘. O‘zbekistonning iqtisodiy tarixi ocherklari. – Toshkent, 1965.